



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

NAVOIY VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023- YIL YANVAR-APREL




Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari ¹⁾

(2021-2023- yillar yanvar-aprel)

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11-maydag'i PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


¹⁾ Shu va keyingi o'rinnlarda 2021-2022- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-aprel)

	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	3 359,4	100,0	106,9
Navoiy sh.	1 209,2	36,0	109,1
Zarafshon sh.	469,0	14,0	104,2
G'ozg'on sh.	10,5	0,3	107,6
Karmana t.	506,0	15,0	106,1
Konimex t.	79,6	2,4	107,0
Qiziltepa t.	317,2	9,4	108,8
Navbahor t.	191,7	5,7	103,5
Nurota t.	141,8	4,2	104,5
Tomdi t.	42,9	1,3	103,9
Uchquduq t.	113,3	3,4	105,3
Xatirchi t.	278,2	8,3	106,0

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (2021-2023- yillar yanvar-aprel)



2023- yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 175,2** ming so'mga yetdi. **2022- yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **104,7 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar (2023- yil yanvar-aprel)


	Hajmi, ming. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	3 175,2	104,7
Navoiy sh.	7 721,5	105,4
Zarafshon sh.	5 409,4	103,0
G'ozg'on sh.	1 151,7	106,4
Karmana t.	3 718,2	103,5
Konimex t.	2 122,9	105,0
Qiziltepa t.	1 988,8	107,0
Navbahor t.	1 609,9	101,7
Nurota t.	1 607,2	102,8
Tomdi t.	2 714,3	102,0
Uchquduq t.	2 891,0	103,4
Xatirchi t.	1 323,3	104,0

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik

(2021-2023- yillar yanvar-aprel)



2021- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan **2023- yil yanvar-aprel** oylarida kichik tadbirkorlikning hajmi **641,3** mlrd. so‘mga oshib, **1 905,9** mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiylajmida ularning ulushi **56,7 %** ni, shu jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar **16,4 %** ini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik sohasi iqtisodiyotning barqaror o‘sishiga, yangi ish o‘rinlarini yaratishga, aholi daromadlarini oshishi va farovonligini ta’minlashga xizmat qildi.

Navoiy viloyati – 1 905,9

Navoiy sh. – 434,2	Zarafshon sh. – 241,0	G‘ozg‘on sh. – 5,6	Karmana t. – 319,3	Konimex t. – 67,5	Qiziltepa t. – 231,1
--------------------	-----------------------	--------------------	--------------------	-------------------	----------------------

Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik

(2023- yil yanvar-aprel, mlrd. so‘mda)

Navbahor t. – 146,8	Nurota t. – 118,5	Tomdi t. – 38,6
Uchquduq t. – 89,2	Xatirchi t. – 214,1	


Xizmatlar sohasida band bo‘lgan kichik tadbirkorlikning umumiylajmida **22,8 foiz** yoki **434,2** mlrd. so‘m Navoiy shahriga to‘g‘ri keldi.



Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-aprel)

	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	3 359,4	100,0	106,9
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	139,2	4,1	124,6
Moliyaviy xizmatlar	800,4	23,8	126,6
Transport xizmatlari	521,8	15,5	98,5
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	447,0	13,3	101,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	212,4	6,3	99,6
Savdo xizmatlari	1007,3	30,0	101,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	62,7	1,9	104,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	99,7	3,0	112,7
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	46,8	1,4	100,0
Ijara xizmatlari	44,4	1,3	90,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	53,3	1,6	100,8
Shaxsiy xizmatlar	95,4	2,8	102,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	156,5	4,7	89,4
Boshqa xizmatlar	119,5	3,6	113,3

Moliyaviy xizmatlar (2021-2023- yillar yanvar-aprel)



2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmi **328,6** mlrd. soʻmga oshib, **800,4** mlrd. soʻmga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **23,8** % ni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning oʼsish surʼati **126,6** % ni tashkil etdi.

— Hajmi, mlrd. soʻmda —●— Oʼsish surʼati, % da

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan toʼlovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash boʼyicha xizmatlari uchun toʼlanadigan haq hisobiga koʼra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-aprel)

2023- yilning yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sugʼurta va nafaqa taʼminoti boʼyicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **92,9** % ni tashkil etdi.

Sugʼurta va nafaqa taʼminoti boʼyicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar

92,9 %

Sugʼurta boʼyicha xizmatlar

5,6 %

Yordamchi moliyaviy faoliyat

1,5 %

Moliyaviy xizmatlarning umumiyligi hajmida Navoiy shahrining ulushi **53,5** foizni yoki **427,9** mlrd. soʻmni tashkil etdi.


2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan Zarafshon shahrida yuqori oʼsish surʼati **140,3** % ni tashkil etdi.



Moliyaviy xizmatlar (2023- yil yanvar-aprel)


Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar	O'sish sur'ati, % da	Bank tizimining moliyaviy barqarorligini isloh qilish hamda mustahkamlash, pul-kredit siyo-satini erkinlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni yanada kengaytirish, real vaqt rejimida xizmatlar ko'lамини kengaytirish (Internet-banking, mobil banking) moliyaviy tashkilotlarning so'nggi elektron to'lov texnologiyalarini joriy etish tarmoqlari moliyaviy xizmatlarning o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.
Navoiy viloyati	126,6	
Navoiy sh.	124,2	
Zarafshon sh.	140,3	
G'ozg'on sh.	110,6	
Karmana t.	129,6	
Konimex t.	116,0	
Qiziltepa t.	130,4	
Navbahor t.	125,0	
Nurota t.	117,7	
Tomdi t.	118,1	
Uchquduq t.	117,7	
Xatirchi t.	122,3	

Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



Transport xizmatlari (2021-2023- yillar yanvar-aprel)

2023- yilning yanvar-aprel oylarida transport xizmatlari hajmi 521,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati 98,5 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 15,5 % ni tashkil etdi.



Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingen daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- may holatiga ko'ra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bog'liq bo'lib, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 797 birlikni, yoki ular xizmat ko'rsatuvchi umumiy korxonalar sonining 5,3 % ini tashkil etdi. Ulardan 788 birlik (98,9 %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Transport xizmatlarining turlari bo'yicha tarkibi (2023- yil yanvar-aprel)



86,5 %

Quruqlik
transporti


11,4 %

Omborga joylashtirish
va yordamchi transport
xizmatlari

2,1 %

Pochta va kuryerlik
xizmatlari

Hududlar kesimida transport xizmatlari (2023- yil yanvar-aprel, mlrd so'mda)



Navoiy viloyati geografik joylashuvining muhim xususiyati zamонавиев транспорт коммуникация тизимининг маънудлигидир.

2022- yilning yanvar-aprel ойларига нисбатан Navoiy shahrida transport xizmatlari hajmi 9,6 mlrd. so'mga oshib, hisobot davrida **110,0** mlrd. so'mni tashkil etgan. **2022- yilning yanvar-aprel** ойларига нисбатан мазкур hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **100,8 %** ni tashkil etdi.

G'ozg'on shahrida ushbu ko'rsatkich **1,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda мазкур xizmatlarning o'sish sur'ati **100,4 %** ni tashkil etdi.




Savdo xizmatlari

(2021-2023- yillar yanvar-aprel)

2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **2023- yilning yanvar-aprel** oylarida savdo xizmatlari hajmi **317,4** mlrd. so‘mga oshib, **1007,3**, mlrd. so‘mnini tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan ushbu xizmat turi bo‘yicha o’sish sur’ati **101,8 %** ga yetdi.



Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya’ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiyligi sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.



2023- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonida savdo faoliyati bilan band bo‘lganlarning ulushi **52,5 %** yoki **7 889** birlik bilan ustunlik qiladi, shundan **99,8 %** (**7 871** birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.



Savdo xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-aprel)

Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosiga, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar

2023- yil yanvar-aprel oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlarining umumiylajining deyarli to'rtadan uch qismini, ya'ni **83,7 %** ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida

Hududlar kesimida savdo xizmatlari mld.so'mda

O'sish sur'ati, % da

Hududlar kesimida	Hududlar kesimida savdo xizmatlari mld.so'mda	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	1007,3	101,8
Navoiy sh.	251,9	101,1
Zarafshon sh.	126,3	109,5
G'ozg'on sh.	0,9	104,5
Karmana t.	175,7	101,4
Konimex t.	29,1	109,9
Qiziltepa t.	123,3	105,6
Navbahor t.	71,2	104,0
Nurota t.	61,0	101,8
Tomdi t.	13,5	100,6
Uchquduq t.	46,3	102,3
Xatirchi t.	108,1	101,8

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021-2023- yillar yanvar-aprel)




2023- yilning yanvar-aprel oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **139,2** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **124,6 %** ni tashkil etdi.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- may holatiga ko'ra «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar soni **286** birlikka yetdi, shundan **278** birligi kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-aprel)




Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-aprel)

Hududlar kesimida	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	139,2	124,6
Navoiy sh.	25,8	123,8
Zarafshon sh.	10,6	132,3
G'ozg'on sh.	0,9	113,3
Karmana t.	18,5	122,9
Konimex t.	4,5	116,7
Qiziltepa t.	19,1	119,4
Navbahor t.	15,0	122,4
Nurota t.	9,8	116,3
Tomdi t.	1,7	119,2
Uchquduq t.	5,7	116,7
Xatirchi t.	27,6	122,2

2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan Xatirchi tumanida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **5,5** mlrd. so'mga oshib, ko'rib chiqilayotgan davrda **27,6** mlrd. so'mga yetdi. Mazkur xizmatlarning umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **19,9 %** ni tashkil etdi.

G'ozg'on shahrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **0,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2021-2023- yillar yanvar-aprel)



2023- yil yanvar-aprel oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **99,7** mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,7** % ni tashkil etdi.



"Ta'lim" seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

(2021-2023- yillar yanvar-aprel)



2023- yil yanvar-aprel oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **46,8** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,4 %**ini tashkil etdi.




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023- yilning 1- may holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **359** birlikni tashkil etdi, shundan **288** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.


Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-aprel, mlrd. so'mda)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2021-2023- yillar yanvar-aprel)

2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **128,2** mlrd. so'mga oshib, **212,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.


Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

2023- yilning 1- may holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **1 299** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **1 295** birlik kichik tadbirkorlik subyektlaridir.

**Yashash va
ovqatlanish bo'yicha
xizmatlar tarkibi
(2023- yil yanvar-aprel)**



Ko'chmas mult bilan bog'liq xizmatlar (2021-2023- yillar yanvar-aprel)



2023- yilning yanvar-aprel oylarida ko'chmas mult bilan bog'liq xizmatlar hajmi **62,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiylajit hajmida ularning ulushi **1,9 %** ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **104,4 %** ni tashkil etgan.

Ko'chmas mult bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mult bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas multni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Hududlar kesimida ko'chmas mult bilan bog'liq xizmatlar hajmi

Navoiy viloyati		(2023- yil yanvar-aprel, mlrd. so'mda)
Navoiy sh.	28,1	Qiziltepa t.
Zarafshon sh.	7,1	Navbahor t.
G'ozg'on sh.	0,5	Nurota t.
Karmana t.	6,8	Tomdi t.
Konimex t.	2,4	Uchquduq t.
		Xatirchi t.

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar

(2021-2023- yillar yanvar-aprel)

2023- yilning yanvar-aprel oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **156,5 mlrd. so'mga** yetdi.

Xizmatlarning umumiyligi hajmidagi ulushi esa **4,7 %** ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **89,4 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-aprel, mlrd. so'mda)

Navoiy viloyati – 156,5

Navoiy sh. – 37,3

Navbahor t. – 1,1

Zarafshon sh. – 114,7

Nurota t. – 0,1

Karmana t. – 1,5

Uchquduq t. – 0,7

Konimex t. – 0,1

Xatirchi t. – 0,7

Qiziltepa t. – 0,3

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (2021-2023-yillar yanvar-aprel)



2023- yilning yanvar-aprel oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi 53,3 mlrd. so'm miqdorda qayd etilib, 2022-yilga nisbatan o'sish sur'ati 100,8 % ni tashkil etdi.



Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-aprel)




Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rnatish, kommunikatsiya uskunalarini (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyemniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'rvuchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyafzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Ijara xizmatlari

(2021-2023- yillar yanvar-aprel)

2023- yilning yanvar-aprel oylarida ijara xizmatlari hajmi 44,4 mlrd. so‘mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi 1,3 % ni tashkil etdi.



Ijara xizmatlari bo‘yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-aprel** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **74,9 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi texnologiyalari va tarmoq tuzilmasining murakkablashishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va turlarini yaxshilash, shuningdek, yuqori texnologiyali va intensiv xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxona, tashkilot va xo‘jaliklarning samaradorligi va ularning raqobatbardoshliligini hamda aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.



Xizmatlar sohasi statistikasi bo‘limi

79-223-63-31